

**INFORMATIKA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY SHAKL VA METODLARIDAN
FOYDALANISH**

Turaqulova Dildora Xujayor qizi

Samarqand viloyati Jomboy tumani 7-IDUM informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, har bir sohaga tadbiq qilish, mutaxassislarining kompyuter savodxonligini oshirish kabi masalalar davr talabiga muvofiq yechilmogda.*

Kalit so`zlar: *axborot, texnologiya, elektron jadval, modellashtirish.*

Аннотация. В Узбекистане в соответствии с потребностями времени решаются такие вопросы, как дальнейшее развитие информационно-коммуникационных технологий, их внедрение во все сферы, повышение компьютерной грамотности специалистов.

Ключевые слова: *информация, технология, электронная таблица, моделирование.*

Abstract. *In Uzbekistan, issues such as further development of information and communication technologies, implementation in every field, and improvement of computer literacy of specialists are being solved in accordance with the needs of the time.*

Key words: *information, technology, spreadsheet, modeling.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishganligiga yigirma besh yil to'lmoqda. Kishilik jamiyati tarixi uchun bu davr nisbatan qisqa vaqt hisoblansa-da, mustaqillik yillarida Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshdi. Jamiatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida qaror topgan munosabat mazmuni o'zgarib, yangicha qarashlar vujudga keldi. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonida rivojlangan bozor munosabatlari ustuvor o'rinn egallayotgan bo'lsa, madaniy sohada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish – ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida olib borilayotgan harakat davlat va jamiat qurilishining umumiy mohiyatini ifodalaydi. Bugungi kunda ta'limga ko'rsatilayotgan e'tibor o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Ta'lim jarayonida o'qitishning yangi shakl va metodlaridan foydalanish butun mazmun – mohiyati bilan o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan.

Informatika fanini o'qitishni tashkil etishda bugungi kunning dolzarb talablari, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish, loyihalash talabi qo'yilyapti. Maqsad o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlashni shakllantirish. Dars yakunida qaytar aloqaga, kafolotlangan natijaga erishi. Natijada "subyekt-obyekt"

munosabatlari “subyekt-subyekt” munosabatlariga aylanadi. Bu jarayonni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishda interfaol metodlardan maqsadga muvofiq o‘rinli foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Buning uchun avvalo o‘qituvchi o‘zi bu jarayoniga tayyor turishi lozim. Barcha davrlarda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham o‘qituvchi ko‘rgazmalikkha, axborot kommunikatsion texnologiyalardan ko‘proq foydalanishga etibor qaratyapti.

Informatika fanini o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish, kasbiy faoliyatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, informatikadan turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish hamda o‘tkazishga tayyorlash, ta’lim-tarbiya sohasini axborotlashtirishning yo‘llari va istiqbollari haqidagi tassavvurlarini rivojlashtirish va chuqurlashtirish, informatika o‘qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, amalda qo‘llash uchun ko‘nikma va makalalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

ASOSIY QISM

Har bir fan o‘qituvchisi ta’lim - tarbiya jarayonini hozirgi kun talablari asosida tashkil eta olishi lozim. Shu sababli, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchisi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. O‘quvchilarga quyidagi bilimlar bo‘yicha umumiylar ma’lumotlar berish:

- “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish;

- o‘quvchilarning bilish faoliyatini hamda mustaqil o‘zlashtirishini rivojlanterish maqsadida o‘qitishning usul va shakllarini takomillashtirish;

- kompyuter qurilmalari vazifalari bilan tanishtirish va ular bilan ishlay olish;

- operatsion tizimlar va ularning imkoniyatlari bilan tanishtirish;

- qobiq dasturlar va ular bilan ishlay olish malakasini hosil qilish;

- kompyutering matn va grafikli muharrirlari vositalarining imkoniyatlarini o‘rgatish;

- ma’lumot va dasturlarning nuxxalarini olish usullarini o‘rgatish;

- kompyuterda mustaqil ishlay olish malakasini hosil qilish;

- dasturlar tuza olish malakasinni oshirish;

- tarmoq bilan ishlay olish malakalarini hosil qilish.

2. O‘quvchilarda mashqlar (masalalar) bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlanterish:

- kompyuterda masala yechish bosqichlari;

- mashqlar bajarish jarayonida nazariy bilimlarni masala yechishga tadbiq qilish;

- mashqlar bajarish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash malakalarini rivojlanterish.

Har bir fan kabi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani ham o‘zining didaktik tizimiga ega bo‘lib, u o‘rganilayotgan fan tizimidan boshlab, eng zaruriy

didaktik qoidalarni hisobga oladi, ya’ni pedagogikaning ma’lum tamoyillari, ya’ni noma’lumdan ma’lumga, yengildan murakkabga (osondan qiyingga) kabilarga tayanadi.

A.A. Abduqodirov “Didaktik tizim - bu har bir alohida o‘quvchining bilish faoliyatini boshqarish uslubiyoti va vositalarining aniq kompleksidir” deb ko‘rsatib o‘tadi. Bunday tizimdagi asosiy parametrlar “boshqarish”, “har bir o‘quvchi”, “uslubiyot va vositalar kompleksi” dan iboratdir.

Mashq bajarishning didaktik maqsadlarini tahlil qilib uning quyidagi ko‘rinishlarini ajratish mumkin:

a) O‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash. Bunda bajariladigan mashqlar yangi o‘rganilayotgan mavzu bilan oldin o‘tilgan mavzularni taqqoslab o‘zlashtirishga tayyorlash qonuniyatlarini yaxlit ravishda tasavvur etishga imkon yaratish talablariga mos bo‘lishi kerak.

b) O‘rganilgan o‘quv materialini takrorlash va malaka hosil qilish. Bunday maqsad o‘rganilgan bilimlarni aniqlashtirish va o‘quvchi tomonidan puxta o‘zlashtirilishidan iborat.

v) Bilim va malakalarni bir tizimga solish. Bunda o‘quvchilar quyidagi ziddiyatlarni hal qilinishiga alohida e’tibor bermoqlari lozim: o‘rganilgan bilim va undan amaliy foydalanish o‘rtasidagi ziddiyat, o‘rganilgan bilim va uni turli sharoitlarga tadbiq etish o‘rtasidagi ziddiyat. Ushbu ziddiyatlarni ijobjiy hal qilish yo‘li bilan o‘quvchilarning mavzu yuzasidan o‘rganilgan bilimlari yanada aniqlashadi.

g) Bilim va malakalarni tekshirish. Bunda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish natijasi faktlardan nazariy bilimlarga va aksincha nazariy bilimlardan faktlarga o‘tish, mashqlarni zudlik bilan yecha olish kabi sifatlar bilan xarakterlanadi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida mashqlarni samarali qo‘llash muammosi mashqlar tizimini yaratishni talab qiladi.

Mashq, amaliy topshiriq va masala o‘quvchilarda mustaqillik, tadbirkorlik, faollik, uning fikrlash faoliyatini shakllantirishga qaratilgan yetakchi didaktik vosita ekanligi ma’lum. Mashqlarning doimiy bajarilishi natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyati rivojlantiriladi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda shakllantirilgan aqliy faoliyat tafakkurning doimiy rivojlanishiga qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishga doir ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarda bilimlar hosil qilish, o‘quv va malakalarni tarkib toptirish hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Bunda o‘quvchilarda o‘qish, yozish, gapirish, tinglash, fikrlash ko‘nikmalarini uzlusiz rivojlantirib borish lozim. Bu maqsadni amalga oshirish uchun dars jarayonida turli usullardan foydalanish bilan bir qatorda turli mazmundagi mashqlarni bajartirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda ta’lim mazmunini differensiallash muhim ahamiyatga egadir, chunki amaliy mashg‘ulotlarda tanlangan mashqlar mazmunini ixtiyoriy ko‘rinishdagi kasb egasiga

zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikma va malakaga asoslangan bilimlar minimumiga ega bo‘lmog‘i kerak.

Mazmunning bu qismi quyidagi maqsadlar bilan aniqlanishi mumkin:

- o‘quvchilar tomonidan axborot va ularning turlari, ularni yig‘ish, saqlash, o‘zgartirish, qayta ishlash hamda uzatish amallarini bajaruvchi axborot texnologiyalarining vositalari haqidagi tushunchalarni egallah;
- o‘quvchilar tomonidan o‘zlarining tuzgan dasturlarini va mavjud standart amaliy dasturlar ta’mnotinishlata bilish ko‘nikmalarini egallah;
- Windows operatsion tizimi bilan ishlash va uning imkoniyatlaridan foydalanishni bilish;
- kompyuterda turli amaliy dasturlar bilan ishlay olish malakalarini egallah;
- matnli va grafikli ma’lumotlar hosil qilish malakalariga ega bo‘lish;
- bir necha dastur va unda tayyorlangan ma’lumotlar ustida nusxa olish, hujjatlarni bir-biriga birlashtirish va h.k. kabi bilim, malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish;
- kompyuterda turli taqdimotlar yaratma olish malakasiga ega bo‘lish.

Ta’lim mazmunining boshqa qismi(barcha o‘quvchilar uchun o‘rganish majbur bo‘lmagan) dastur yaratish, kompyutering turli xil operatsion tizimi va uning amaliy dasturlarining boshqa imkoniyatlari bilan tanishish kabi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi va amaliy ko‘nikmalarini o‘z ichiga olishi zarur.

Shu tufayli, amaliy mashg‘ulotlarda tanlangan topshiriqlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda to‘rt xil murakkablik darajali bo‘lishi e’tiborga loyiqdир: birinchi va ikkinchi murakkablik darajali topshiriqlar - barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan; uchinchi murakkablik darajali topshiriqlar – “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘rganishga qiziqqan o‘quvchilarga mo‘ljallangan; to‘rtinchi murakkablik darajali topshiriqlar - ushbu sohaga maxsus qobiliyatli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lmog‘i e’tiborga loyiqdир.

XULOSA

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy - mafkuraviy jihatdan tarbiyalash ishi faqatgina ta’lim muassasalaridagina olib borilib qolinmaydi. Balki, bu ish umumjamiyat miqyosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda axborot texnologiyalari, internet tarmog‘i, oila, mahalla, huquqiy tashkilotlar, ma’naviy - mafkuraviy markazlar, ijtimoiy institutlar, mehnat jamoalarining o‘rni ham beqiyosdir.

REFERENCES:

1. Saidova, N. O., & Yigitaliyeva, M. S. (2022). MAK TAB YOSHIDAGI BOLALAR LARNING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. Results of National Scientific Research, 1(3), 53-59.

2. Saidova, N. (2022). BOLAJAK BOSHLANGICH SINF OQITUVCHILARI KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ORNI. Zamnaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(22), 4-7.

3. Olimovna, S. N. (2022). FORMATION OF QUANTITATIVE REPRESENTATIONS IN THE SECONDARY GROUPS IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(01), 58-60.

4. Olimovna, S. N. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA HAR BIR YOSH GURUHIDA TEVARAK ATROFNI IDROK ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Results of National Scientific Research, 1(1), 115-119.